

**BOLALAR HARAKAT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FUTBOL SPORT  
TURINING AHAMIYATI**

**Abdumalikov Sobit Abdumalik o'g'li, Umarov Karim Sadullayevich, Mirzayev Karim  
Mamarasul o'g'li, Safarov Aminjon Sunnatullo o'g'li**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha ta'lim fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Bolalarni jismoniy faolligini oshirish hamda barkamolligini taminlashda futbol sport turi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Maqolada bolalarni harakat ko'nikmalarini shakllantirishda futbol sport turining muxim jixatlari o'rganildi va tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Futbol sport turi, jismoniy tarbiya, umumiy jismoniy tayyorgarlik, o'yinlar, bolalar, tarbiyachi, jismoniy rivojlanish.

**THE SIGNIFICANCE OF FOOTBALL SPORTS IN THE FORMATION OF  
CHILDREN'S MOVEMENT SKILLS**

**Abstract:** Football is one of the main means of improving children's physical activity and ensuring their fitness. In the article, the important aspects of the football sport in the formation of children's movement skills were studied and analyzed.

**Key words:** Football sport, physical education, general physical training, games, children, educator, physical development.

**Аннотация:** Футбол является одним из основных средств повышения двигательной активности детей и обеспечения их физической подготовки. В статье изучены и проанализированы важные аспекты футбольного спорта в формировании двигательных навыков детей.

**Ключевые слова:** Футбольный спорт, физическое воспитание, общая физическая подготовка, игры, дети, воспитатель, физическое развитие.

**Dolzarbligi** O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim sohasining barcha jabhalariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ommaviy ravishda tadbiriq etilmoqda. Mamlakatimiz rahbariyati halqni sog'lomlashtirish va jismoniy rivojlantirish uchun beqiyos sa'iy harakatlar olib bormoqdalar. Hozirgi kunda sportchilarimiz butun dunyo sport arenalarini zabt etmoqdalar. Futbol inson organizmiga har tomonlama ta'sir ko'rsatuvchi jismoniy va ruhiy funksional takomillashuv vositasi sifatida mamlakat aholisining barcha qatlamlari, ayniqsa o'quvchi yoshlar orasida juda ommalashgan sport turi hisoblanadi. Shuning uchun bu sport turi o'quv reja va ko'p bosqichli musobaqalar dasturiga kiritilgan.

Ta'lim jarayoni tuzilmasida futbol, ta'lim standartlari, o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlarga muvofiq o'qitiladi. Futbol fanining maqsadi o'quvchilarni kasbiy-amaliy, jismoniy tayyorgarlik asoslarini shakllantirish va takomillashtirishdir. Bunda albatta fanni kasbga yo'naltirilgan boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlash juda muhim.

Mamlakatimizda sport o'yinlarining barcha turlari bo'yicha Jumladan, futbol bo'yicha ham muntazam chempionat va kubok musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama jismonan barkamol inson qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini to'g'ri tashkil etish yo'lga qo'yildi. Maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilayotgan "Umid nihollari", Kasb-hunar kollejlari va Akademik litsey talabalarining "Barkamol avlod" musobaqalari, shuningdek Oliy

o'quv yurtlari va Universitet talabalarining "Universiada" musobaqalari fikrimizning yaqqol dalilidir. Ko'plab mahoratli sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritishib, davlatimiz bayrog'ini yuksakka ko'tarilishi natijasida, o'zbek xalqi dunyo xalqlariga o'zligini namoyon qildi. Bunda albatta har bir sportchi tomonidan qo'lga kiritgan g'alaba, butun o'zbek xalqi g'alabasi timsolida namoyon etiladi. Sport yoshlarni milliy g'urur, va milliy g'oyasi ruxida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Sport musobaqalarida qatnashish natijasida yoshlar o'zlarining jismoniy, texnik va taktik tayyorgarliklarini oshirish bilan bir qatorda, ma'naviy, ruhiy hamda baynalminal xislatlarini tarbiyalab, o'zbek xalqi madaniyatini va ma'naviyatini targ'ibot, tashviqot qiladi. Nufuzli musobaqalarda qatnashayotgan futbolchilarimiz timsolida butun o'zbek diyori, uning aholisi xaqidagi tasavvurlar shakllanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama aqliy, ahloqiy va jismoniy jihatdan rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport muhim ahamiyat kasb etadi va ularda mardlik, vatanparvarlik, sadoqat va halollik tuyg'ularini shakllantirishda yordam beradi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Talim muassasalarida futbol mashg'ulotlarini muntazam tashkil qilish va o'tkazish bolalarda avvalo harakat ko'nikma va malakalarini shakllantiradi, jismoniy fazilatlarini rivojlantiradi, bolalarni o'z harakatlarini boshqarishni rivojlantirishga yordam beradi, ular gavdasini tartibga soladi, ya'ni turli zo'riqishda harakat qilishga o'rgatadi. Bolalarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda futbol sport turining ahamiyati beqiyosdir. Futbolning mashq elementlari bolani juda chaqqonlik, muayyan maqsad va tezkorlik bilan harakat qilishga; qoidalarni bajarish, o'zini tutishga o'rgatadi. Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishni, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni singdirishning g'oyat muhim sharti hisoblanadi. Futbol bola harakatlarini o'stirish va takomillashtirishda muxim ahamiyatga ega. Bolalarga harakatlarga o'rgatishda va ular ko'nikma hosil qilishida, futbolda ayniqsa to'pni olib yurish, to'p bilan yugurish, to'pni qabul qilish, sakrash, to'pni uzatish, raqibni aldab o'tish, to'pga zarba berish, va shu kabi futbol elementlaridan tashkil topgan mashqlar bilan bolalarni muntazam shug'ullanishiga sharoit yaratib berishimiz muhimdir. O'quv mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchi va murabbiylar tomonidan futbol sport turining mashq elementlarini o'rgatib borishlari va ko'maklashishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarni harakatlarga o'rgatish va takrorlashlar natijasida ko'nikma hosil qilishida mustahkam poydevor bo'lib hizmat qiladi, mustaqil xulq-atvorni shakllantirish, ulardagi tashabbuskorlik hamda to'siqlarni yengishga intilish kabi xususiyatlarni jismoniy tarbiyada futbol sport turi orqali ham tarbiyalash mumkin, bunda ularga futbol texnikasiga oid mashqlarni o'rgatishni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda jismoniy qobiliyatining o'sishi o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi balki, murabbiylarning ta'siri natijasida amalga oshadi. Chunki bolalarning hatti-harakatlari qanchalik texnik jihatdan umumlashgan bo'lsa, ular maydonda shunchalik yaxshi harakatlanishiga erishish mumkin. Binobarin, bolalarning texnik harakatlarining o'sishi o'z-o'zidan jismoniy sifatlarining rivojlanishiga olib keladi, va ularning har tomonlama jismonan yaxshi rivojlanishiga olib keladi.

## **XULOSA**

Bolalarda harakatning o'sishida futbolning ta'siri haqida gap borganida avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, futbol mashg'ulotlarini tashkil qilishning o'ziyoq bolaning harakatlarini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Ikkinchidan, futbol mashg'uloti jarayoni bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini sub'ekt aynan bevosita mashg'ulotlar orqali o'zlashtiradi. Bolalarning mashg'ulotlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi,

harakatni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va ko'p marta takrorlashlar natijasida ko'nikma xosil qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining —Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi Qonuni. Toshkent, 5 sentabr 2015 yil. 174 – son Xalq so'zi gazetasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Futbolni yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risidagi qarori. Toshkent.16 mart 2018 yil.PQ-3610.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni.Toshkent. 4 dekabr 2019 yil. PF-5887-son.
4. Aliyev M.B., Usmonxo,jayev T.S., Sagdiyev H.H. Sport o'yinlari. Futbol. T.,Ilm Ziyoy, 2007. 118 b.
5. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Ташкент Изд-во.Абу-Али-Ибн-Сино. – 2000 г. – с. 135.
6. Nurimov R.I.Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O'quv qo'llanma.Toshkent, 2005. – 35-58 b.
7. R.I.Nurimov. —Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. ITA-PRESS.Toshkent. 2015 yil. 342 b.
8. N.M. Yusupov, A.T.Shermuhamedov, A.A. Artiqov, O.Yo. Bektorov “Sport pedagogik mahoratini oshirish” «IQTISOD-MOLIYA», Toshkent 2015 y.
9. SH.X.Isroilov, Z.R . Nirimov, SH.U.Abidov, S.R.Davletmuradov, A.A.Karimov. Sport va harakatli o'yinlar. (Futbol) darslik. Toshkent. 2017yil